

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA TARJIMA JARAYONIDA DUCH KELINADIGAN GRAMMATIK MUAMMOLAR

Mamatova Farog'at Komil qizi

Samarqand davlat universiteti (Kattaqo'rg'on filiali)

Elektron pochta manzili: farogat858@gmail.com

Sattarova Nafisa Nizomiddinova

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Annotation: This article talks about the problems encountered in the process of translation in Uzbek and English, as well as the specific features and differences of these languages.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar va ushbu tillarning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Key words: Translation, grammatical category, globalization, preposition.

Kalit so'zlar: Tarjima, grammatik kategoriya, globallasuv, predlog.

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Qadim zamonlardan beri turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tarjimaning ahamiyati katta bo'lgan. Hozirgi zamonaviy globallasuv jarayonida ham tarjimaning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa ilm fan va texnikaning jadal sur'atlarda o'sishi natijasida savdo-sotiq, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni rivojlantirishda tarjimaga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu o'rinda tarjima jarayonida ham e'tiborga molik muammolar ham uchraydi. Jumladan tarjima jarayonida ko'pincha grammatik muammolarga duch kelinadi.

Tarjimada grammatikaga oid muammolar:

O'zbek tilida gapdagi so'zlarning joylashuvi erkindir. So'zlarning joylashuvining o'zgarishi gapning ma'nosiga deyarli ta'sir qilmaydi. Ammo ingliz tilida gapdagi so'zlarning tartibi qat'iy. (subject+verb + object)

Misollar:

O'zbek: U do'stari bilan futbol o'ynayotgan edi. (kesim oxirida)

He(subject)with his friends(object)playing football(past continuous)was (auxiliary verb)

Ingliz: He was playing football with his friends

(nouns marked for case + verbs marked for tense)

Ikki til o'rtasidagi grammatik moslikning asosiy turlari quyidagilardan iborat.

*To'liq moslik

*Qisman moslik

*moslikning umuman yo'qligi

To'liq moslikda ikki tilda ham grammatik kategoriyalar bir xilda bo'lishi kerak. O'zbek va ingliz tilida son kategoriyasi bir xillikga ega hisoblanadi. Jumladan ikki tilda ham son kategoriya ikkiga bo'linadi.

*Birlik

*Ko'plik

Masalan:

Qalam –qalamlar(a pencil –pencils)

Kitob –kitoblar(a book –books)

Gul-gullar (a flower-flowers)

Ba'zida istisno tarzda o'zbek tilida –lar ko'plik qo'shimchasi ko'plik yasashdan tashqari, hurmat ma'nosini ham beradi .Ingliz tili bundan mustasno.

Masalan:

O'zbek: Dadamlar keldilar.

Ingliz : Daddy came

Qisman moslikka ikki tilda ham mavjud bo'lgan kelishiklar kategoriyasini olishimiz mumkin. Ingliz tilida 2 ta (bosh va qaratqich), o'zbek tilida esa 6 ta kelishik mavjud (bosh kelishik, qaratqich kelishigi –ning, tushum kelishigi –ni, jo'nalish –ga (,-ka , -qa), o'rin-payt kelishigi –da va chiqish kelishigi –dan).

Masalan:

Bosh kelishik:

O'zbek: ruchka

Ingliz: pen

Qaratqich kelishigi:

O'zbek: mening kitobim

Ingliz: my book

O'zbek : o'zbeklarning an'anaviy ichimligi

Ingliz : a traditional beverage of uzbeks or uzbeks'traditional beverage

Bosh va qaratqich kelishigidan boshqa barcha kelishiklar ingliz tilida predloglar orqali ifodalanadi.

Masalan:

O'zbek: U maktabga ketdi

Ingliz : She\He went to school (to means –ga(jo'nalish kelishigi) in Uzbek

O'zbek: Onam bozordan keldilar

Ingliz: My mother came from the market (from means –dan(chiqish kelishigi) in Uzbek)

O'zbek tilidagi tushum kelishigi ingliz tilida so'z tartibi(word order) bilan ifodalanadi.

O'zbek: Men ukamni ko'rdim.

Ingliz: I saw my brother.

O'zbek : O'qituvchi ertaga maktabda tadbir bo'lishini hamma o'quvchilarga aytdi

Ingliz: The teacher told all the pupils that there will be an event at school tomorrow (at means –da(chiqish kelishigi)in Uzbek)

Bir tilda mavjud bo'lgan grammatik kategoriya ikkinchi tilda mavjud bo'lmaganida grammatik moslikning yo'qligi kuzatiladi.O'zbek tilida mavjud bo'lgan egalik qo'shimchalari ingliz tilida umuman mavjud emas:

Son Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-m(-im)	-miz(-imiz)
II shaxs	-ng(-ing)	-ng(-ingiz)
III shaxs	-i(-si)	-(lar)

Misollar:

O'zbek : mening kitobim

Sening opang

Uning onasi

Ingliz : my book

Your sister

His|her mother

Har bir til o'z ichki xususiyatlariga egadir.Shu sababli har bir tarjimon tarjima qilishdan oldin tarjima qilinayotgan tilni (Source language) ham tarjima qilingan tilni(target language) ham yaxshi bilishi kerak.Tarjima jarayonida bu katta ro'l o'ynaydi.Yuqorida ikki til doirasida grammatik o'xshashliklar va farqlar ko'rib chiqildi.O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilayotganda ularga amal qilish har bir tarjimondan talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://agatranslate.ae/grammatical-problems-of-translation/>
2. Translation analysis on figurative language in English and uzbek(based on “the old man and sea “by Ernest Hemingway)-Sattarova N.I Research and education 2(1)105-109,2023
3. <https://openscience.uz>